

## 2021- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami **4 948,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **114,1 %**ni tashkil etdi.



### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'vicha shakllanadi.


Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3 633** tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **478** taga ko‘paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlarning soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o‘tgan yilga nisbatan **114,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **113,4 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **10,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **33,9 %**) o’sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.10.2020- yil	01.10.2021- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3155</b>	<b>3633</b>	<b>115,2</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>836</b>	<b>973</b>	<b>116,4</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>316</b>	<b>358</b>	<b>113,3</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>111</b>	<b>130</b>	<b>117,1</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>317</b>	<b>352</b>	<b>111,0</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>104</b>	<b>116</b>	<b>111,5</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>105</b>	<b>110</b>	<b>104,8</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>159</b>	<b>168</b>	<b>105,7</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>123</b>	<b>138</b>	<b>112,2</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>82</b>	<b>96</b>	<b>117,1</b>
	<b>Quva</b>	<b>137</b>	<b>154</b>	<b>112,4</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>171</b>	<b>203</b>	<b>118,7</b>

	<b>Rishton</b>	70	86	122,9
	<b>So'x</b>	41	71	173,2
	<b>Toshloq</b>	134	148	110,4
	<b>O'zbekiston</b>	81	94	116,0
	<b>Farg'ona</b>	96	118	122,9
	<b>Dang'ara</b>	124	142	114,5
	<b>Furqat</b>	70	81	115,7
	<b>Yozyovon</b>	78	95	121,8


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.10.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,8 %), Qo'qon (9,9 %) va Marg'ilon (9,7 %) shaharlarda qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **589,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **162,8** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,5** % punktga ko'payib, **11,9** %ni tashkil etdi.


**Yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahrida jami qurilish ishlari hajmining **36,5 %** yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,5 m.**, Yozyovon tumanida jami qurilish ishlari hajmining **19,8 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **71,8 %**., va Qo'qon shahrida esa jami qurilish ishlari hajmining **18,2 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,0 %**ga to'g'ri keldi.


### Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,1 %**ni to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan **4,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan **106,6 %**ni tashkil etgan holda **3 220,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




### Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida norasmiy sektor

2020- yil  
yanvar-sentabr



**o'sish sur'ati, %da**

2021- yil  
yanvar-sentabr



**ulushi, %da**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **121,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 826,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %**ni tashkil etdi.

### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2,5

Davlat mulki

97,5

Nodavlat mulk

3,0

97,0



2020- yil  
Yanvar-sentabr

2021- yil  
Yanvar-sentabr

Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring **63,2 %** yoki **3 125,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **540,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlardagi ulushi **17,3 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 551,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlardagi ulushi **49,6 %**ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 034,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,1 %**ni tashkil etdi.




### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>4948,3</b>	<b>114,1</b>	<b>3125,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Farg'ona</b>	<b>1011,6</b>	<b>103,0</b>	<b>638,0</b>
<b>Qo'qon</b>	<b>386,3</b>	<b>120,4</b>	<b>225,4</b>
<b>Quvasoy</b>	<b>204,2</b>	<b>108,9</b>	<b>61,8</b>
<b>Marg'ilon</b>	<b>860,3</b>	<b>122,5</b>	<b>699,6</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Oltiariq</b>	<b>165,8</b>	<b>102,0</b>	<b>60,5</b>
<b>Qo'shtepa</b>	<b>175,9</b>	<b>105,7</b>	<b>120,6</b>
<b>Bag'dod</b>	<b>344,6</b>	<b>109,7</b>	<b>201,3</b>
<b>Buvayda</b>	<b>175,5</b>	<b>165,9</b>	<b>62,0</b>
<b>Beshariq</b>	<b>97,3</b>	<b>103,8</b>	<b>80,5</b>
<b>Quva</b>	<b>180,8</b>	<b>103,9</b>	<b>159,8</b>
<b>Uchko'prik</b>	<b>140,6</b>	<b>132,5</b>	<b>100,6</b>
<b>Rishton</b>	<b>99,2</b>	<b>132,5</b>	<b>45,1</b>
<b>So'x</b>	<b>115,0</b>	<b>104,5</b>	<b>56,1</b>
<b>Toshloq</b>	<b>211,6</b>	<b>122,9</b>	<b>118,7</b>
<b>O'zbekiston</b>	<b>126,4</b>	<b>143,0</b>	<b>106,8</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>108,5</b>	<b>107,0</b>	<b>39,1</b>
<b>Dang'ara</b>	<b>252,1</b>	<b>103,1</b>	<b>130,2</b>
<b>Furqat</b>	<b>139,2</b>	<b>140,5</b>	<b>128,8</b>
<b>Yozyovon</b>	<b>153,3</b>	<b>117,6</b>	<b>90,8</b>

\* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **10,6 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,5 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga ko'payib, **61,0 %**ni tashkil etdi.



Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,0 %** punktga kamayib, **28,4 %**ni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,8 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,5 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,6 %** (**15,5 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,6 %** (**4,0 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi va **11,8 %**ni tashkil etdi. Qolgan **88,2 %**i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **16,1 %** punktga ko'paydi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Ijr : O'.Umarov  
Tel.: (73) 249-87-26  
(73)-241-98-42